

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA MAQOLLARNING QO'LLANISHI

Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi
Andijon davlat universiteti lingvistika mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
shoxistayoqubboyeva@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17347923>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Iqbol Mirzoning she'riyatida xalq og'zaki ijodining noyob namunalaridan bo'lgan maqollarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallifning turli she'rlarida uchraydigan maqollar kontekstual jihatdan o'rganilib, ularning poetik vazifasi, semantik yuklamasi va badiiy ifoda vositasi sifatidagi o'rni aniqlanadi. Tadqiqot davomida maqollar shoir tomonidan nafaqat milliy ruhni ifodalash, balki obraz yaratish, g'oyani kuchaytirish hamda xalqona mushohada va falsafani yetkazish vositasi sifatida samarali qo'llangani ta'kidlanadi. Maqola Iqbol Mirzo poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda badiiy matn tahlilida badiiy tasvir elementlarining ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy she'riyat, xalq og'zaki ijodi, poetik til, badiiy tasvir vositalari, semantik tahlil, badiiy matn, milliy ruh va xalqona ohang.

Xalq maqollarini ilm obyekti sifatida o'rganish va to'plash XX asr boshlariga to'g'ri keladi. O'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostroumovning xizmati katta. Bir necha o'zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonovning maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqoti yuzaga keldi. O'zbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yo'nalishda tadqiq etila boshlandi, ya'ni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'naviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Bu borada A.Rustamov, H.Sulaymon, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov, H.Berdiyev, R.Rasulov, S. Asqarov, A. Jo'raxonov, M.To'ychiyev, M.Hakimovlarning [3, 85-87 b] ishlarini keltirish mumkin. O'zbek tilshunosligida xalq maqollarining to'laqonli sinonimik lug'atini yaratish kabi muhim vazifa B.Jo'raeva tomonidan uddalandi [4, 79 b]

Maqol tushunchasini ifodalash uchun yigirmadan ortiqroq terminlar qo'llanadi: maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so'zi, qadimgilar so'zi, donishmandlar so'zi, donolar so'zi, yaxshilar so'zi, burungilar so'zi, ulusning so'zi, avomunnos masali, hikmatli so'z va boshqalar. Badiiy adabiyotda, publisistik adabiyotlarda, vaqtli matbuotda ham bu terminlar deyarli farqlanmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda esa idiomatik ibora, qayroqi ibora, aforizm, ko'chma ma'noli turg'un birikma, frazeologik birikma, frazema kabi terminlar bilan yuritiladi. "Maqollar xalq tajribasidan o'tgan, voqea-hodisalarning so'zdagi o'zgarish ifodasidir". [1, 34 b]

Iqbol Mirzo — zamonaviy o'zbek she'riyati namoyandalaridan biri bo'lib, uning asarlarida xalq og'zaki ijodi, xususan, maqollar va iboralar keng qo'llanilgan. U she'rlarida maqollarni bevosita yoki ramziy ma'noda ishlatish orqali fikrni chuqurlashtiradi, milliy ruh va xalqona ohangni kuchaytiradi. Biz ushbu maqolada shoir ijodida qo'llangan maqollarni semantik jihatdan tahlil qilib, ko'rib chiqamiz.

Bugungi o'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodi, xususan, maqollarning adabiy matn bilan uyg'unlashuvi, shoirlar badiiy uslubining bir qismi sifatida namoyon bo'layotgani dolzarb ilmiy-

tadqiqot mavzularidan biridir. Ijodkorlar orasida Iqbol Mirzo she'riyati ushbu jarayonning yorqin namunasidir. Uning ijodida maqollar nafaqat xalqona ohang yaratish vositasi, balki badiiy-falsafiy mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi semantik element sifatida ham muhim o'rin egallaydi. "Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlariga munosabatlarida yaraladi". [2,7 b]

"Ko'p tupursa, ko'l bo'lur" (Maqol).

Tushunarsiz bo'lsa qay gulga,

Mana, misol: tupurdik, Orol

Aylanmoqda mo'jaz bir ko'lga. [5, 54 b]

"Ko'p tupursa ko'l bo'lur" — bu xalq maqoli bo'lib, juda kuchli va chuqur ma'no anglatadi. Ma'nos shuki, kichik-kichik ishlar yoki hissa qo'shishlar ko'p bo'lsa, katta natija hosil bo'ladi. Har bir odam ozgina yordam bersa yoki ozgina harakat qilsa ham, u umumiy foyda yoki yutuqqa olib keladi. Tupurish — juda kichik harakat, lekin agar ko'pchilik shu ishni qilsa, ko'lga aylanishi mumkin. Bu orqali shuni anglatadi: yagona insonning hissasi kichik ko'rinsa-da, jamoaviylikda katta kuchga ega bo'ladi. Bu — o'zbek xalq maqoli bo'lib, xalqning jamoaviylik, birlik va ozdan ko'p yasallishini qadrlagan dunyoqarashini aks ettiradi.

Men yuraksiz...o'lmadim, ammo

Jonim olib qo'ygan qotillar.

Qo'rqoqlarga o'lim yo'q, also,

Halok bo'lar ekan botirlar. [5, 97 b]

"Qo'rqoqlarga o'lim yo'q" — bu maqol bo'lib, xalq og'zaki ijodida qo'llanadigan va yurakdagi qo'rquv, shubha yoki vahm bilan bog'liq o'ylarga qarshi ishlatiladigan iboradir. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, qo'rqoqlar hayotdagi barcha xavflardan yoki dardlardan qochishga urinishadi, shuning uchun ular "o'limni" his qilishmaydi — ya'ni ular hayotda haqiqiy xavfni tushunmaydilar, chunki ular qo'rquvdan saqlanishadi.

Bir boshga bir o'lim degan hikmat bor,

Banda bo'yinsunar qismat xatiga.

Hatto manov sudxo'r, shu xiyonatkor

Vafo qildi tangri omonatiga. [5, 124 b]

"Bir boshga bir o'lim" — bu maqol bo'lib, hayot va o'limning tabiiy qonunini ifodalaydi. Har bir insonning o'limi o'z vaqtida bo'ladi, va bu — hech kimdan qochib bo'lmaydigan haqiqat. Maqolda o'limning adolatli va inoyatli bo'lishiga e'tibor qaratiladi: har bir inson bir marta o'ladi, va bu taqdirning hal qiluvchi jihati sifatida ko'riladi. She'rda qo'llanilgan ushbu maqola hayot va o'lim o'rtasidagi tenglikni tasvirlaydi. O'lim, har kim uchun yagona va o'z vaqtida keladigan voqea sifatida taqdim etiladi.

Cho'ntaging to'lar va omading kular,

Otni to'g'ri yo'ldan chapga toydirsang.

Pul – qo'lning kiridir, demish eskilar,

Qancha iflos bo'lsang, shuncha boydirsan.[5,169 b]

"Pul qo'lning kiridir" — xalq orasida juda mashhur maqollardan biri bo'lib, u moddiy boylikning muvaqqat ekanini, unga haddan tashqari bog'lanmaslik kerakligini uqtiradi. Bu maqolda "pul" inson uchun kerakli vosita sifatida tan olinadi, lekin u doimiy, ishonchli boylik emas — qo'lning kiri kabi yuvilib ketadi, qolmaydi, vaqtinchalikdir, ya'ni pul doimiy emas, kir kabi keladi-ketadi. Muhimi — vijdon, halollik, mehr, or-nomus.

Iqbol Mirzo she'riyatida xalq og'zaki ijodining, xususan, maqollarning o'rnini muhim. U o'z she'rlarida maqollarni nafaqat bevosita iqtibos sifatida, balki ularning mazmunidan ramziy, falsafiy, badiiy vosita sifatida ham foydalanadi.

Bir boshda bir o'lim qo'rqinchi bordir,

O'ynashlik yoqimli ajal bilan.

Men o'lmayman deging keladi,

Ishonging keladi abadiyatga. [5, 219 b]

"Bir boshda bir o'lim" — bu o'zbek xalq maqollaridan biri bo'lib, chuqur ma'noga ega. U quyidagicha talqin qilinadi: har bir inson hayotda bir marotaba o'ladi, ya'ni o'lim bir martalikdir. Shu sababli, ba'zan odamlar qiyin yoki xavfli vaziyatlarga duch kelganda bu maqol orqali jasorat topadilar: "baribir o'lim bir marta, qo'rqmaslik kerak". Bu maqol ko'pincha jasorat, qat'iyat, va qo'rquvni yengish zarur bo'lgan vaziyatlarda ishlatiladi.

Yomonga o'lim yo'q, yaxshiga kun yo'q,

Tomiringga qo'shib olishar uzib.

Bobur yo'q, Cho'lpon yo'q, Majnun yo'q,

Muhammad Yusuf yo'q, Muhammad Yusuf. [6, 14 b]

"Yomonga o'lim yo'q, yaxshiga kun yo'q" — bu ham o'zbek xalq maqollaridan biri bo'lib, hayotdagi adolatsizlik va ziddiyatlarni kinoyaviy tarzda ifodalaydi. Bu maqol ko'pincha haqsizlik, notenglik, yoki "halol odam qiynaladi, insofsizlar yashnab yuradi" degan holatlarda ishlatiladi. Bu mazmun aynan Iqbol Mirzoning ijtimoiy-tanqidiy she'rlariga juda mos keladi. U ko'pincha she'rlarida adolatsizlikni, yaxshi insonlarning qiynalishini, nodonlarning yuksalib yurishini, vijdonli insonlarning g'amli hayotini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, maqollar xalqning so'z boyligi sifatida adabiy tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini atroflicha o'rganish uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi. Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan maqollar ma'no ta'sirchanligigani oshirishga, maqolning jozibadorligini ta'minlashga, qisqa so'zlar orqali keng ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.X.Suvonqulova. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2014.
- 2.G'.Salomov. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, 1983.
3. B.Jo'rayeva BO'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'ati. –T.: FAN, 2006.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati (M harfi) A. Madvaliev tahriri asosida. – Toshkent, 1981.
- 5.Iqbol Mirzo. Ko'zlaringga termulsaydim. I jild. – Toshkent, 2020.
- 6.Iqbol Mirzo. Ko'nglingda nima bor, bilmayman. II jild. – Toshkent. 2020.